


**BUXORO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**BUXORO VILOTATINING
SANOAT ISHLAB CHIQRISHI
2024- YIL YANVAR-SENTABR
(DASTLABKI MA'LUMOT)**




**Tel.: 65-223-80-42
www.buxstat.uz**

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari


(2024-yil 1-oktabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 3 847 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 783 tasi faoliyat (ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 20,4 % i) Buxoro shahriga, 467 tasi (12,1 % i) G'ijduvon tumaniga, 339 tasi (8,8 % i) Kogon tumaniga, 327 tasi (8,8 % i) Jondor tumaniga, 327 tasi (8,5 % i) Romitan tumaniga, 301 tasi (7,8 % i) Vobkent tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Jami faoliyat yuritayotgan



Jami yangi tashkil etilgan



Vobkent	92
Romitan	81
G'ijduvon	74
Buxoro sh.	67
Olot	63
Shofirkon	57
Kogon	56
Jondor	55
Buxoro	52
Peshku	50
Qorako'l	36
Kogon sh.	17
Qorovulbozor	8

● ● Faoliyat yuritayotgan




Yangi tashkil etilgan

Buxoro viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat korxonalaridan 28 567,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan* bo'lib, 2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 106,1 % ni tashkil etdi.


Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



mlrd. so'mda FHI, % da
*Yashirin iqtisodiyotni hisodga olgan holda

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, shahar va tuman kesimida


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Qorovulbozor tumani (588 115,5 ming so'm), Kogon tumani (17 875,1 ming so'm) o'rtacha viloyat* darajasi ko'rsatkichidan (13 893,5 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



*Yashirin iqtisodiyotni hisodga olgan holda


Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 26 877,0 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 94,1 % ni tashkil etdi.



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyati jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Qorovulbozor tumani (45,2 %), Buxoro shahri (11,9 %), G'ijduvon tumani (7,2 %), Kogon tumani (5,8 %) hamda Romitan (4,6 %) tumani hissasiga to'g'ri keldi.

Shuningdek o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Jondor (109,1 %), Olot (108,5 %), hamda Shofirkon (108,3 %) tumanlarida kuzatildi.







Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, shahar va tuman kesimida

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (koʻmir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni oʻz ichiga oladi.



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalari tomonidan 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 266,5 mlrd. soʻm yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 0,9 % ga toʻgʻri keldi.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi, yanvar-sentabr, mlrd. soʻmda



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi

Sanoat ishlab chiqarishi FHI, yanvar-sentabr, % da




mlrd. soʻmda


FHI, % da

yanvar-sentabr oylarida yirik korxonalar bo'yicha

(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan % da*)



Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog'liq burg'ulash xizmatlari






Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-sentabr	2024-yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Oltingugurt, t.	664,0	867,4	203,4
Gips, t.	450 694,0	101 858,5	- 348 835,5
Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog'liq burg'ulash xizmatlari, mln. s'om	189 000,9	144 800,1	- 44 200,8


* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoat bu – tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma’lum turi uchun birdan-bir to’liq me’zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o’z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi* 26 877,0 mlrd. so’mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 94,1 % ni tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoatning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi




mlrd. so'mda FHI, % da

*Yashirin iqtisodiyotni hisodga olgan holda

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,0 % ni (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida – 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 2,8 % (2,6 %), o'rta-quyi texnologiyali – 51,2 % (58,5 %), quyi texnologiyali 46,0 % (38,8 %) ni tashkil etgan.




Jami sanoat tarkibida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 39,0 % (2023- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 96,2 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 21,0 % (2023- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 111,7 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 20,6 % (2023- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 110,2 %) ni tashkil etdi.

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Shuningdek, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlarni ishlab chiqarishning ulushi – 5,9 % (2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 116,2 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 2,7 % (2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 131,8 %) ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda 768,7 ming tonna avtomobil benzini (2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 0,8 % ga ko'paygan), 3 072,5 ming litr aroq mahsulotlari (10,0 % ga pasaygan) ishlab chiqarilgan.


Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-sentabr	2024- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Mazut, ming t.	43,4	60,8	17,4
O'simlik yog'i (tozalangan), t	12 928,6	7 043,1	- 5 885,5
Paxta tolasi, t	49 764,0	40 942,0	- 8 822,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.	14 190,2	23 659,1	9 468,9
Paxta chigiti, t.	78 675,0	67 302,0	- 11 373,0

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Metallurgiya sanoati

Metallurgiya sanoati – cho‘yan ishlab chiqarish va qora va rangli metallarni qayta ishlash, jumladan, quyma cho‘yan va toza metallarga kimyoviy elementlar qo‘shgan holda superqotishmalar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,3 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 109,7 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 79,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – minerallar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan ishlab chiqarish turlarini o‘z ichiga olib, shisha va shishadan mahsulotlar, keramik buyumlar, polga o‘rnatiladigan qoplamalar, kafel, cherepitsa, terrakota buyumlar, sement va xomashyodan tayyor mahsulotgacha ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,3 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 116,2 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 1 383,8 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – yeyiladigan qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o‘z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 16,1 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 106,7 % ni tashkil va ishlab chiqarish hajmi 4 220,6 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ichimliklar ishlab chiqarish – spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali; pivo va vino, shuningdek, distillangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,6 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 153,1 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 418,5 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 17,6 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 11,3 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 4 611,4 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-sentabr oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,1 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 113,3 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 798,4 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,9 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 135,8% ni hamda ishlab chiqarish hajmi 487,6 mlrd. so'mni tashkil etgan.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish – foydalanish uchun tayyor bo'lgan xom neft va ko'mir mahsulotlarini qayta ishlashni o'z ichiga oladi. Asosiy faoliyati bu – xom neftni komponentlarga separatsiyasida bo'lgan kreking va distillyatsiyalash yo'li bilan neftni tozalash. Shuningdek etan, propan va butan kabi gaz mahsulotlarini, shu bilan birgalikda neftni qayta ishlash zavodi mahsulotlarini o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 42,6 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 96,2 % ni tashkil etdi hamda ishlab chiqarish hajmi 11 154,5 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish – rezina va plastikdan mahsulot ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishda foydalanadigan xomashyo materiallarini o'z ichiga oladi. Lekin bu bo'limga ishlab chiqarishning barcha turlari va materiallari kiradi degani emas.


2024- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,9 % ni, fizik hajm indeksi 124,5 % ni tashkil qildi hamda ishlab chiqarish hajmida 225,8 mlrd. so'm kuzatildi.



Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish – “toza metallardan aralashmasiz” buyumlar ishlab chiqarish (jumladan, ehtiyot qismlari, konteynerlar va moslamalar), odatda statsionar, faqat elektr, elektron yoki optik asboblardan uchun radiopriborlar, uzatish moslamalari kabi, ko'rsatilgan metallar (ba'zida boshqa metallar bilan) va ancha murakkab birikmalar qotishmalarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,7 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 146,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 190,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, shahar va tumanlar kesimida

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiyasini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 182,3 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,1 % ini) tashkil etgan.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>2023- yil yanvar-sentabr*</i>	<i>2024- yil yanvar-sentabr</i>
Elektrenergiya, mln.kVt.s	1 493,8	1 281,3
Issiqlik energiyasi, ming gkal	486,2	480,6

** 2023-yil yanvar-sentabr oylari uchun ishlab chiqarish xajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

2024- yilning yanvar-sentabr oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektr energiya ishlab chiqarish 85,8 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 98,8 % ni tashkil etdi.





** tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra*



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish, shahar va tumanlar kesimida

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 242,1 mlrd. so'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % iga) to'g'ri keldi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi




mlrd. so'mda FHI, % da

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 65,1 % ga ko'payishi kuzatildi. Shuningdek axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 0,9 % ga kamaytirish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-sentabr	2024-yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	14 587,3	24 085,1	9 497,8
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	308,3	305,5	-2,8




* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra


Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 11 984,9 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib*, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 42,0 % ni tashkil etdi. 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 31,9 % ni tashkil etgan.


yanvar-sentabr
mlrd. soʻmda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining
jami sanoat ishlab chiqarish
hajmidagi ulushi



yanvar-sentabr
ulushi, % da



Shofirkon	92,7
673,6	
Olot	91,9
372,7	
Jondor	91,6
1 073,4	
Vobkent	82,5
768,4	
Kogon	71,7
1 092,6	
Peshku	65,8
414,3	
Kogon sh.	64,6
565,9	
Buxoro sh.	60,0
1 862,2	
Buxoro	53,0
447,8	
Qorakoʻl	51,3
538,6	
Gʻijduvon	51,2
964,3	
Romitan	43,0
517,3	
Qorovulbozor	5,7
676,3	
Navoiy	

● mlrd. soʻmda

Ulushi, % da

*Yashirin iqtisodiyotni hisodga olgan holda



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 165 ta loyiha bo'yicha 5 593,6 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 28,1 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi. Shu bilan birga 624 ta yangi ish o'rinlari yaratildi

